

Axatov Ilhomjon
Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik
mutaxassisligi 1-kurs magistranti
Ilmiy rahbari: f.f.d. Eshmuhamedova M.

Ogahiy tarjimasidagi “Guliston” asarining qo‘lyozmasi

Shayx Muslihiddin Sa’diy Sheroziy (1184-1292) o‘ziga to‘q va ma’rifatli xonadonda tavallud topgan.¹ U dunyoga buyuk shoir, donishmand adib sifatida tanilgan. «Shayx» deb ko‘proq so‘fiylar boshlig‘iga, diniy arboblarga nisbatan aytilgan. Taxallusidan ma’lum bo‘lganidek, u sherozlik, Sheroz Eronning mashhur shaharlaridan biridir.

Bugungi kunga kelib Sa’diy nomi dunyoning juda ko‘plab mamlakatlarida tanilgan. Sharqda u qanchalar hurmat bilan tilga olingan bo‘lsa, G‘arbda ham shoirga bo‘lgan e’tibor shuncha balanddir. Umrining 20 yilidan ko‘prog‘i sayohatda o‘tgan. U Afrikadan Xitoygacha, Hindistondan Farangistongacha kezib chiqqan. Musofirlikning, hatto asirlikning azoblarini ko‘rgan va bu sayohatlari davomida ko‘rgan-bilganlarini umumlashtirib, sayqallab «Bo‘ston» (1257- yilda yozilgan) hamda «Guliston» (1258) asarlariga ixcham hikoyalar qilib kiritgan.

Shoirning ushbu «Guliston» va «Bo‘ston» nomli ikki asari uning nomini butun dunyoga tanitdi. Bu ikki asar uning o‘z ko‘rgan-kechirgan, eshitgan-bilgan voqealari asosida maydonga kelgan. Sa’diy Sheroziyning “Guliston” va “Bo‘ston” asarlaridan tashqari yana boshqa asarlari, bugungi kunda musulmon olamida keng tarqalgan. Bu asarlarning tarqalishiga, o‘z navbatida har bir diyordan yetishib chiqqan mashhur tarjimonlar ko‘p hissa qo‘shganlar. Shu jumladan, mashur adib va tarjimon Muhammad Rizo Ogahy (1809-1874) ham Sa’diy Sheroziyning “Guliston” asarini fors tilidan turkiy tiliga mahorat bilan tarjima qilgan va u o‘zbek adabiyoti tarixida o‘z qiymatiga ega.

¹ Sa’diy “Guliston” Forsiydan Muhammad Rizo Ogahiy tarjimasi-T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.l

Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asarining bir necha toshbosma² va qo'lyozma³ nusxalari hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik Institutida saqlanib kelinmoqda.

U basmala va Allohga hamd, uning nabiylariga salovat yo'llash bilan boshlangan. Undan tashqari Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan "Guliston" asariga bag'ishlab qisqacha debocha ham yozilgan.

Asarning kirish qisimlaridan so'ng asosiy qism boshlanib, u 8 bobni o'z ichiga oladi;

1-bob. Podshohlar siyrati zikrida.

2-bob. Darveshlar axloqi zikrida.

3-bob. Qanoat fazilati zikrida.

4-bob. Xomushlig' favoyidi zikrida.

5-bob. Ishq va yig'itlik zikrida.

6-bob. Zaiflik va qarilik zikrida.

7-bob. Tarbiyat ta'siri zikrida.

8-bob. Suhbat odobi zikrida.

Asarda har bir bobga bag'ishlangan qisqacha she'rlar va ularga mos hikoyalar keltirilgan. Bu asarni Ogahiy turkiyga tarjima qilgan qo'lyozma nusxalaridan biri 899 inventar raqami bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik Institutida saqlanadi.

Qo'lyozma fabrika qog'oziga nasta'liq xatida qora siyoh bilan yozilgan, ayrim so'zlar qizil siyohda yozilgan. Matn har sahifada 11 yo'ldan, Poygirlar bor. Har bir bobning nomlanishi ko'rstaib borilgan. Ayrim varaqlarda noto'g'ri yozilgan so'zlar ustiga chiziq tortilib, tuzatib ketilgan.

Boshlanishi:

نعت بی منتها حضرت حق جل و علی غه کیم.

Oxiri:

4549. № سعدي شیرازی. طاش باسمه²


4843. № سعدي شیرازی. قاوليازمه³

مثنوی بیز نصیحت بجای کیلتوردوک. پندنی آخری غه یتکور دوک. کرکیشی قولاق سالماس بیزدین
ایل کا پیام بولغای بس.

Kolofon:


تمت الكتاب بعون ملك الوهاب هر که خواند دعا طمع دارم زان که من بنده کنه کارم. شد بتوفیق
خدای لاینام این کتاب روز یکشنبه تمام شد. ۱۲۷۵

Ya'ni: Tammatul-kitab biavni malikul-vahhab, Har ki xovandi duo tama'
doram. Z onki man banda gunohkoram. Shud betavfiqi Xudoyi lo yanom in kitob
ro'zi yakshanba tamom shud.



Asar h. 1270 – (1858 m). yili ko‘chirilgan. Xattoti ko‘rsatilmagan. Qo‘lyozmaning ayrim varaqlari hoshiyasiga qalam bilan chizib tashlangan. Hoshiyadagi yozuvlar surkalgan. Ba’zi varaqlarni cheti yirtilib yo‘qolgan.

Qo‘lyozmaning 1a varag‘ida 3 muhr bor. Ular:



Ushbu muhabbat uslub Abdulhay sho tushun? (h. 1307) (m.1889-1890)

1. Yo qoziy al-hojot
2. Yo mufattih al-abvab

(h.1334) (m.1916) aylana shaklda, hajmi 13x15 mm.

Sharq muqovasi, kartondan ishlangan, qora rangli, hajmi 21 x 13, 177 varaq.

Xulosa qilib, shuni ta’kidlash joizki, bugungi kunda bunday toshbosma va qo‘lyozma asarlarni o‘ganishda extiyotsizlikka yo‘l qoymasligimiz, asrab-avaylab o‘rganishimiz zarurligini bitta qo‘lyozma asar misolida ko‘rib turibmiz.

Bu asar yuzasidan ayrim tadqiqotlar olib borilgan. Lekin u manbashunsolik – matnshunoslik nuqtai nazaridan maxsus o‘rganilgan emas. Demak, asarni ushbu yo‘nalishda maxsus o‘rganish bu sohada qilinadigan dolzarb ishlarning biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Sa’diy “Guliston” Forsiydan Muhammad Rizo Ogahiy tarjimasi. T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
2. Muhammad Rizo Ogahiy qo‘lyozma nusxasi, № 899
3. سعدی شیرازی. طاش باسمه. № 4549.
4. سعدی شیرازی. قاولیازمه. № 4843 .
5. Урунбаева А. ва Епифанова Л.М. Собрание Восточных Рукописей Академии Наук Узбекской ССР. ТОМ VII. Издательство “Наука” Узбекской ССР. - Т. 1964.
6. Ziyonet.uz